



## ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR BO‘LINMALARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATINING HUQUQIY MEXANIZMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20617913>

**Narzullayev Nurimbek Nurillayevich**

*Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi*

*mustaqil izlanuvchisi*

*Email: narzullayev@mail.ru*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikning rivojlanish bosqichlari, amaldagi normativ-huquqiy bazaning holati hamda uni yanada takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Unda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan qonunlar, Prezident farmon va qarorlarining mazmun-mohiyati yoritilib, Ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, oldini olish va fosh etishdagi o‘rni baholangan. Shuningdek, Singapur, Gonkong va Gruziyaning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribalari o‘rganilib, ularning ilg‘or jihatlarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Muallif tomonidan ichki komplayens tizimini rivojlantirish, kadrlar siyosatini takomillashtirish, raqamli monitoring va sun‘iy intellekt asosidagi risk tahlili tizimlarini joriy etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish organlarining institutsional mustaqilligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, Ichki ishlar organlari, tezkor bo‘linmalar, komplayens nazorati, manfaatlar to‘qnashuvi, xalqaro tajriba, UNCAC, OECD, raqamlashtirish, jamoatchilik nazorati.*

## ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОПЕРАТИВНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ ПО ПРОТИВОДЕЙСТВИЮ КОРРУПЦИИ

**Аннотация:** *В данной статье проанализированы этапы развития антикоррупционного законодательства Республики Узбекистан, современное состояние нормативно-правовой базы и вопросы её дальнейшего совершенствования. Рассмотрены законы, указы и постановления, направленные на противодействие коррупции, а также оценена роль оперативных подразделений органов внутренних дел в выявлении, предупреждении и раскрытии коррупционных правонарушений. Кроме того, изучен опыт Сингапура, Гонконга и Грузии в сфере*



*противодействия коррупции и рассмотрены возможности адаптации их передовых практик к условиям Узбекистана. Автором предложены меры по развитию системы комплаенс-контроля, совершенствованию кадровой политики, внедрению цифрового мониторинга и систем анализа рисков на основе искусственного интеллекта, усилению общественного контроля и повышению институциональной независимости антикоррупционных органов.*

**Ключевые слова:** *коррупция, противодействие коррупции, органы внутренних дел, оперативные подразделения, комплаенс-контроль, конфликт интересов, международный опыт, UNCAC, OECD, цифровизация, общественный контроль.*

## LEGAL MECHANISMS OF THE ACTIVITIES OF OPERATIONAL UNITS OF INTERNAL AFFAIRS BODIES IN COMBATING CORRUPTION

**Abstract:** *This article analyzes the development stages of the anti-corruption legislation of the Republic of Uzbekistan, the current state of its legal framework, and issues related to its further improvement. The study examines laws, presidential decrees, and resolutions adopted in the field of combating corruption and evaluates the role of operational units of internal affairs bodies in detecting, preventing, and investigating corruption-related offenses. Furthermore, the anti-corruption experiences of Singapore, Hong Kong, and Georgia are reviewed, and the possibilities of adapting their best practices to Uzbekistan are considered. The author proposes measures aimed at strengthening internal compliance systems, improving personnel policy, introducing digital monitoring and artificial intelligence-based risk assessment mechanisms, enhancing public oversight, and increasing the institutional independence of anti-corruption bodies.*

**Keywords:** *corruption, anti-corruption policy, internal affairs bodies, operational units, compliance control, conflict of interest, international experience, UNCAC, OECD, digitalization, public oversight.*

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu sohada muhim huquqiy va institutsional hamda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish muhim ahamiyatga ega sohalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyot, huquqni muhofaza qilish va davlat faoliyatining boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki bosqichida yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar, noto'g'ri hisob-kitoblar, qonunchilik bazasining mukammal emasligi, samarali boshqaruv siyosatining yo'qligi korrupsiyaning kuchayishiga sabab bo'lgan asosiy omillar bo'ldi. Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti



etib saylangan vaqtdan boshlab, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu salbiy illatga qarshi kurashishni o'zining dasturiy vazifasini deb e'lon qildi. Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasida jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida Jamoatchilik palatasi tashkil etish taklifi bildirildi<sup>15</sup>. Mamlakatimizda korrupsiya bilan bog'liq muammolarga chek qo'yish va ularni jilovlash maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-34-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6013-son farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik

ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6257-son farmonlari mamlakatimiz ushbu "yov" ga qarshi kurashishning yangi bosqichini ishlab chiqdi. Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, tergov qilish va oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu bo'linmalar jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarliklarni fosh qilish va javobgar shaxslarni jazolashda davlat siyosatining amaliy ijrochilari sifatida, ayrim holatlar bo'ladiki, jinoyatning bevosita subyekti bo'lib xizmat qiladi. Biroq, Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular samaradorlikni pasaytiradi va korrupsiyaga qarshi kurashning umumiy natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2023-yilda IIO tezkor-qidiruv departamentining Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi hamda uning hududiy bo'linmalari tomonidan 2800 dan ortiq korrupsiya va iqtisodiy harakterdagi jinoyatlar aniqlangan. Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bilan hamkorlikda esa 3996 ta huquqbuzarlik holati qayd etilib, ulardan 3942 tasi jinoyat ishi sifatida qo'zg'atilgan. 2024-yilning birinchi yarmida davlat xaridlari sohasida 1219 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan va 393 ta jinoyat ishi ochilgan. Bu ko'rsatkichlar tezkor bo'linmalarining operativ samaradorligini isbotlaydi va sohada institutsional kuchayish jarayonini aks ettiradi.

<sup>15</sup> Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashning yangi tuzilmalarini tashkil qilish bo'yicha yig'ilishida so'zlagan nutqi – 11.02.2020.



Biroq, tizimli tahlillar shuni ko'rsatadiki, ushbu natijalar ortida bir qator chuqur institutsional va funksional muammolar yashirinmoqda. Huquqiy baza xalqaro standartlarga to'liq moslashmagan, xodimlarning kasbiy va axloqiy tayyorgarligi yetarli emas, moddiy-texnik resurslar cheklanganligi va institutlararo muvofiqlashtirish mexanizmlari takomillashtirishni talab etadi. Robert Klitgaardning "Korrupsiyani nazorat qilish" monografiyasida ta'kidlanganidek, korrupsiya "monopoliya + diskretsiya – hisobdorlik" formulasiga asoslanadi<sup>16</sup>. O'zbekiston sharoitida IIO tezkor bo'linmalarida diskretsiya darajasi yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa korrupsion xavfni oshiradi.

Xalqaro tajribada (masalan, Gongkongning Mustaqil korrupsiyaga qarshi komissiyasi — ICAC yoki Singapur CPIB modeli) tezkor bo'linmalar mustaqillik, yuqori professionalizm va kuchli preventiv mexanizmlar bilan birgalikda ishlaganda samarali natijaga erishiladi. O'zbekiston uchun bu tajribalarni moslashtirish orqali tezkor bo'linmalarda ichki komplayens tizimini joriy etish, kadrlar tanlovida psixologik va poligraf testlarini majburiylashtirish va real vaqt rejimida ma'lumotlar almashinuvi platformalarini yaratish amaliy va samarali yondashuv bo'ladi.

Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, operativ-qidiruv faoliyatini raqamlashtirish va sun'iy intellekt asosidagi risk tahlili tizimini joriy etish orqali tezkor bo'linmalar samaradorligini sezilarli oshirish mumkin. Shuningdek, OECD va BMT hisobotlarida yuqori darajadagi korrupsiyaga qarshi maxsus tergov guruhlarini mustaqillashtirish va guvohlar himoyasi mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi qayd etilgan. Ushbu choralarni amalga oshirish nafaqat jinoyatlarni fosh etish, balki korrupsiya muhitini o'zgartirishga, fuqarolar ishonchini oshirishga va milliy rivojlanish jarayonlarini tozalashga xizmat qiladi.

Ushbu muammolarni hal etishda inson omili — xodimlarning vijdonliligi, motivatsiyasi va doimiy kasbiy rivoji markaziy o'rin tutadi. Chunki har qanday huquqiy mexanizm oxir-oqibatda uni amalga oshiruvchi odamlarning sifatiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy tartibga solish tizimi so'nggi o'n yillikda sezilarli institutsional rivojlanish bosqichini boshdan kechirdi. 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun ushbu sohada asosiy normativ-huquqiy hujjat bo'lib qoldi. U korrupsiya tushunchasini aniq belgilab, davlat organlari va mansabdor shaxslarning vazifa va majburiyatlarini tartibga soladi, shuningdek, oldini olish, aniqlash va

<sup>16</sup> Klitgaard, R. – 1988 y. Controlling Corruption. Berkeley: University of California Press.



javobgarlikka tortish mexanizmlarini o'z ichiga oladi<sup>17</sup>.

Ushbu Qonunning qabul qilinishi bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional bazasi mustahkamlandi. Prezidentning 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi. Agentlik profilaktika, monitoring, muvofiqlashtirish, shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi muhim funksiyalarni amalga oshiradi<sup>18</sup>. Bu tuzilma xalqaro standartlar, xususan, BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi (UNCAC, O'zbekiston 2008-yilda qo'shilgan) talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Ichki ishlar organlari tezkor bo'linmalari uchun asosiy huquqiy asos "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi. Ushbu Qonun tezkor-qidiruv tadbirlarini qat'iy tartibga soladi. Qonunda dalillarning sudda qabul qilinishi mexanizmlari ham belgilangan bo'lib, bu tezkor bo'linmalar faoliyatining huquqiy xavfsizligini ta'minlaydi.

<sup>17</sup> Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun (O'RQ-419). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. <https://lex.uz/docs/3476647>

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-6013-son farmoni - <https://www.lex.uz/docs/-4875784?ONDATE=08.11.2023%2000>

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, huquqiy baza yetarli bo'lishiga qaramay, ayrim protsessual cheklovlar va resurs ta'minoti muammolari mavjud. Masalan, maxsus tergov usullari UNCAC talablariga muvofiq joriy etilgan bo'lsa-da, ularni qo'llashda texnik va kadrlar salohiyati yetishmovchiligi seziladi. OECDning "Anti-Corruption Reforms in Uzbekistan" hisobotida ta'kidlanishicha, O'zbekiston qonunchiligi xalqaro standartlarga yaqinlashgan, ammo institutlararo hamkorlik va maxsus tergov guruhlarining mustaqilligini yanada kuchaytirish zarur<sup>19</sup>.

Robert Klitgaardning monografiyasida keltirilgan formula O'zbekiston sharoitida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda<sup>20</sup>. IIO tezkor bo'linmalarida mansabdor shaxslarning diskretsiya huquqi yuqori bo'lgani uchun ichki hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish — komplayens-nazorat tizimini joriy etish va kadrlarning doimiy axloqiy-mavnaviy tayyorgarligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Inson omili bu yerda markaziy o'rin tutadi: har qanday qonun oxir-oqibat uni amalga oshiruvchi xodimlarning vijdoni, kasbiy mahorati va motivatsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarda, jumladan S.Raxmonovning "O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi

<sup>19</sup> [https://www.oecd.org/en/publications/anti-corruption-reforms-in-uzbekistan\\_46942986-en.html](https://www.oecd.org/en/publications/anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_46942986-en.html)

<sup>20</sup> Klitgaard, R. – 1988 y. Controlling Corruption. Berkeley: University of California Press.



kurashish qonunchiligini tahlil qilish va uni yanada takomillashtirish masalalari” ishida O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro tajribaga yanada chuqurroq integratsiya qilish, guvohlar himoyasi mexanizmlarini takomillashtirish va raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Shuningdek, ma’muriy-huquqiy jihatdan ta’minlashda Ma’muriy javobgarlik kodeksidagi bo‘shliqlarni bartaraf etish zarurligi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy tartibga solish tizimi so‘nggi yillarda chuqur institutsional va normativ takomillashtirish bosqichini boshdan kechirmoqda. Asosiy hujjat sifatida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni qolmoqda. Ushbu Qonunga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lib, xususan, manfaatlar to‘qnashuvi institutini yanada chuqurlashtirish va guvohlar himoyasi mexanizmlarini kuchaytirish yo‘nalishida takomillashtirilgan. 2024-yil 5-iyunda qabul qilingan “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi yangi Qonun esa korrupsiyaga qarshi kurashning muhim qo‘shimcha huquqiy asosiga aylandi. Ushbu Qonun shaxsiy manfaatlar va xizmat majburiyatlari o‘rtasidagi real yoki potensial to‘qnashuv holatlarini aniq belgilaydi, ularga qarshi choralar ko‘rish tartibini belgilaydi hamda Ma’muriy javobgarlik kodeksiga tegishli moddalar kiritilishiga sabab bo‘ldi.<sup>21</sup>

<sup>21</sup> <https://nbu.uz/assets/manfaatlar-to'qnashuvi-to'g'risidagi-o'rq-931--05.06.2024.pdf>

Prezidentning 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoni asosida tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi profilaktika, monitoring, muvofiqlashtirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash funksiyalarini bajarishda davom etmoqda.<sup>22</sup> 2025-yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-sonli Farmoni esa milliy dasturlarni yangilash, ichki nazorat (komplayens) bo‘linmalarining mustaqilligini oshirish va korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishni nazarda tutadi.<sup>23</sup>

Amaliy jihatdan, IIO tezkor bo‘linmalarida maxsus komplayens-xodimlar institutini kuchaytirish, kadrlar tayyorlash dasturlarini muntazam yangilab borish va UNCAC talablariga to‘liq mos ravishda maxsus tergov usullarini qo‘llash mexanizmlarini soddalashtirish korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bunday yondashuv

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-6013-son farmoni - <https://www.lex.uz/uz/docs/-4875784?ONDATE=08.11.2023%2000>

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-71-sonli Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-7486412>



nafaqat jinoyatlarni fosh etish, balki jamiyatda halollik va shaffoflik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'minlashni takomillashtirishda Singapur va Gongkong tajribasi alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu modellar institutsional mustaqillik, kuchli siyosiy iroda, ko'p tomonlama strategiya va inson omilini markazga qo'ygan yondashuvlari bilan dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi.

Singapur politsiya tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda dunyodagi eng muvaffaqiyatli davlatlardan biridir. Transparency Internationalning 2024-yilgi CPI indeksida Singapur 84 ball bilan uchinchi o'rinni egallaydi. CPIBning muvaffaqiyati uning mustaqilligi va keng vakolatlarida yotadi. Byuro politsiya xodimlari faoliyatini mustaqil ravishda tekshiradi, shuningdek, korrupsiyaga olib keluvchi institutsional kamchiliklarni aniqlash uchun tadqiqotlar o'tkazadi. Singapur politsiya tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dunyodagi eng muvaffaqiyatli davlatlardan biridir. Singapurda 1952-yilda tashkil etilgan Korrupsiyaga Qarshi Kurash bo'yicha Tergov Byurosi (CPIB) politsiya tizimida korrupsiyani aniqlash va bartaraf etishda yetakchi rol o'ynaydi. CPIB "Korrupsion xatti-harakatlar to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat yuritadi, bu qonun politsiya xodimlari tomonidan poraxo'rlik, noqonuniy daromad olish va manfaatlar to'qnashuvi kabi harakatlar

uchun qattiq jazo choralari belgilaydi. Masalan, qonunga ko'ra, politsiya xodimi pora olganlikda ayblansa, 7 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki 100,000 Singapur dollari miqdorida jarima solinishi mumkin.

CPIBning muvaffaqiyati uning mustaqilligi va keng vakolatlarida yotadi. Byuro politsiya xodimlari faoliyatini mustaqil ravishda tekshiradi, shuningdek, korrupsiyaga olib keluvchi institutsional kamchiliklarni aniqlash uchun tadqiqotlar o'tkazadi. Robert Klitgaard "Controlling Corruption" asarida Singapur tajribasini hisobdorlik va qat'iy huquqiy choralar orqali korrupsiyani kamaytirishning muvaffaqiyatli namunasi sifatida ta'kidlaydi<sup>24</sup>. CPIB, shuningdek, "korrupsiyaga undovchi holatlarni yo'q qilish" strategiyasiga asoslanadi, bu politsiya xodimlari uchun aniq qoidalar va jarima choralari joriy etishni o'z ichiga oladi. Masalan, Singapurda politsiya xodimlari uchun majburiy mol-mulk deklaratsiyasi tizimi mavjud bo'lib, bu tizim ularning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlashga yordam beradi.

Robert Klitgaard "Korrupsiyani nazorat qilish" asarida Singapur tajribasini hisobdorlik va qat'iy huquqiy choralar orqali korrupsiyani kamaytirishning muvaffaqiyatli namunasi sifatida ta'kidlaydi. CPIBning "korrupsiyaga undovchi holatlarni yo'q qilish" strategiyasi politsiya xodimlari

<sup>24</sup> Klitgaard, R. (1988). *Controlling Corruption*. Berkeley: University of California Press.



uchun aniq qoidalar va qattiq jazo choralari joriy etishni o'z ichiga oladi. Masalan, Singapurda politsiya xodimlari uchun majburiy mol-mulk deklaratsiyasi tizimi mavjud bo'lib, bu ularning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlashga yordam beradi. Singapurda, shuningdek, politsiya xodimlari uchun yuqori maoshlar va ijtimoiy kafolatlar tizimi joriy etilgan bo'lib, bu iqtisodiy rag'batlarni yo'q qilish orqali korrupsiyani kamaytiradi. Vito Tanzi o'zining "Corruption Around the World" maqolasida Singapur tajribasini iqtisodiy rag'batlarni yo'q qilish va shaffof boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning muvaffaqiyatli modeli sifatida ta'kidlaydi.<sup>25, 26</sup>

Gonkongning Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Mustaqil Komissiyasi (ICAC) politsiya tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishda dunyodagi eng muvaffaqiyatli institutlardan biridir. 1974-yilda tashkil etilgan ICAC "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun asosida faoliyat yuritadi. Ushbu qonun politsiya xodimlari tomonidan poraxo'rlik, noqonuniy daromad olish va boshqa korrupsion xatti-harakatlar uchun qattiq jazo choralari belgilaydi. ICAC politsiya xodimlarini tekshirishda keng vakolatlarga ega bo'lib, ularning faoliyati

parlament nazorati ostida amalga oshiriladi. ICACning muvaffaqiyati uning uch yo'nalishli strategiyasida yotadi: tergov, oldini olish va ta'lim. Tergov yo'nalishi politsiya xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsion jinoyatlarni aniqlash va jazolashga qaratilgan bo'lsa, oldini olish yo'nalishi politsiya tizimidagi institutsional kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Ta'lim yo'nalishi esa politsiya xodimlari va fuqarolar o'rtasida korrupsiyaga qarshi ongni oshirishga qaratilgan. Vito Tanzi o'zining maqolasida ICACning muvaffaqiyatini uning mustaqilligi va huquqiy vakolatlarining kengligi bilan bog'laydi. ICAC politsiya xodimlari tomonidan poraxo'rlik va noqonuniy daromad olish holatlarini mustaqil ravishda tekshiradi. Masalan, 2020-yilda ICAC tomonidan politsiya xodimlari ishtirokidagi noqonuniy faoliyatlar bo'yicha 15 ta ish ko'rib chiqilgan, ulardan 10 tasi sudgacha yetib borgan. Gonkongda fuqarolar ishtiroki va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash ICACning ishini yanada samarali qiladi, ammo so'nggi yillarda siyosiy bosimlar tufayli ICACning mustaqilligi tanqid ostida qolmoqda.<sup>27</sup>

Ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida moslashtirish IIO tezkor bo'linmalarining institutsional kuchini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

<sup>25</sup> Tanzi, V. (1998). Corruption Around the World: Causes, Consequences, Scope, and Cures. *IMF Staff Papers*, 45(4),

<sup>26</sup>

<https://www.kun.uz/news/2021/12/07/singapur-korrupsiyani-qanday-yengdi>

<sup>27</sup> <https://daqn.uz/2022/05/07/gonkong-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-bo%CA%BByicha-mustaqil-komissiyasi-vakillari-bilan-o%CA%BBzaro-istiqbolli-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi/>



Masalan, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi bilan tezkor bo‘linmalar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni yanada chuqurlashtirish, ichki nazorat bo‘linmalarini mustahkamlash va xodimlar faoliyati uchun ISO 37001 (poraxo‘rlikka qarshi boshqaruv tizimi) standartiga asoslangan mexanizmlarni joriy etish amaliy va samarali yo‘nalishdir. ISO 37001 xalqaro standart bo‘lib, risklarni baholash, ichki audit, shaffof jarayonlar va doimiy monitoringni talab etadi — bu Singapur va Gongkong modellarida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan elementlar bilan uyg‘unlashadi.

Xalqaro tajribada korrupsiyaga qarshi kurashning muvaffaqiyatli modellaridan biri Gruziyaning 2003–2004 yillardagi politsiya islohotlaridir. “Atirgul inqilobi”dan keyin Mikheil Saakashvili rahbarligidagi hukumat korrupsiyani bartaraf etishni davlat siyosatining markaziy yo‘nalishiga aylantirdi. O‘sha paytda politsiya tizimi eng ko‘p korrupsiyalashgan institutlardan biri bo‘lib, fuqarolar uni eng nafratlangan tuzilmalardan biri deb hisoblardi. Islohotlar doirasida butun yo‘l harakati politsiyasi tarqatib yuborildi, minglab xodimlar ishdan bo‘shatildi, yangi kadrlar jalb qilindi, xodimlar soni keskin qisqartirildi va ish haqi bir necha baravar oshirildi. Shaffof tanlov mexanizmlari joriy etildi, raqamli tizimlar keng qo‘llanildi va xizmatlar ko‘rsatish jarayonlari soddalashtirildi. Natijada, fuqarolar orasida politsiyaga bo‘lgan ishonch keskin oshdi — 2009-yilga kelib ichki ishlar vazirligi mamlakatdagi eng

mashhur uchinchi institutga aylandi (Gruziya pravoslav cherkovi va armiyadan keyin). Jinoyatchilik ko‘rsatkichlari pasaydi, kundalik hayotda pora berish holatlari deyarli yo‘qoldi. Transparency International ma‘lumotlariga ko‘ra, Gruziya Korrupsiyani idrok etish indeksi (CPI) bo‘yicha 2003-yildagi juda past ko‘rsatkichdan 2010-yillarga kelib sezilarli yaxshilanishga erishdi. World Bankning “Fighting Corruption in Public Services: Chronicling Georgia’s Reforms” (2010) hisobotida bu tajriba “korrupsiyaning yoppasiga tarqalgan tsiklini buzish va uni ijobiy tsiklga aylantirish mumkinligi”ning yorqin namunasi sifatida baholangan.

Lilli di Puppò va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ta’kidlanishicha, muvaffaqiyatning asosiy omillari — siyosiy irodaning kuchliligi, radikal qadamlar (butun eski tizimni qayta qurish), yuqori maoshlar, shaffof yollash va texnologiyalarni joriy etish bo‘ldi. Biroq, keyingi yillarda ba’zi institutsional zaifliklar saqlanib qolgani ham qayd etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi uchun bu tajribani moslashtirish IIO tezkor bo‘linmalarida huquqiy ta’minlashni yanada kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, kadrlar tanlovini to‘liq raqamlashtirish (elektron platformalar orqali shaffof tanlov), moliyaviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish (yuqori ish haqi va ijtimoiy kafolatlar), axborot tizimlarini markazlashgan integratsiya qilish va ichki audit



mexanizmlarini mustahkamlash samarali yoʻnalishlar hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat jinoyatlarni aniqlash samaradorligini oshiradi, balki xodimlarning kasbiy gʻururi va motivatsiyasini yuksaltiradi.

Inson omili bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega: har qanday islohot oxir-oqibat uni amalga oshiruvchi odamlarning vijdoni, professional mahorati va ichki masʼuliyat tuygʻusiga asoslanadi. Gruziya tajribasi shuni koʻrsatadiki, agar xodimlar yuqori daromad, shaffof muhit va doimiy rivojlanish imkoniyatiga ega boʻlsa, ular korrupsiyaga qarshi kurashning faol ishtirokchilariga aylanadi. Oʻzbekiston sharoitida ushbu elementlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi va IIO tezkor boʻlinmalari oʻrtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirgan holda joriy etish korrupsiyaviy xavflarni sezilarli darajada pasaytirishi va fuqarolar ishonchini mustahkamlashi mumkin.

Bunday amaliy yondashuv nafaqat huquqiy bazani takomillashtiradi, balki jamiyatda halollik va shaffoflik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston uchun amaliy jihatdan eng samarali yondashuv IIO tezkor boʻlinmalarida ichki audit tizimini mustahkamlash, mustaqil ichki komplayens boʻlinmalarini yaratish va jamoatchilik nazoratini institutsionalashtirish (masalan, “Shaffof shaharlar” va “Halol tumanlar” loyihalari kabi) hisoblanadi. Bunday takomillashtirish nafaqat huquqiy bazani

mustahkamlashga, balki inson omilini ham kuchaytirishga xizmat qiladi. Chunki har qanday qonun va mexanizm oxir-oqibat uni amalga oshiruvchi xodimlarning kasbiy mahorati, vijdoni va ichki masʼuliyat tuygʻusiga bogʻliq boʻladi. Agar tezkor boʻlinma xodimlari yuqori motivatsiya, shaffof muhit va doimiy kasbiy rivojlanish imkoniyatiga ega boʻlsa, ular korrupsiyaga qarshi kurashning chinakam samarali ishtirokchilariga aylanadi. Bu esa nafaqat jinoyatlarni fosh etish, balki jamiyatda halollik madaniyatini shakllantirishga olib keladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda IIO tezkor boʻlinmalarining huquqiy taʼminotini takomillashtirishning asosiy yoʻllari quyidagi kompleks choralar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Birinchidan, Ichki ishlar organlari tezkor boʻlinmalari faoliyati uchun maxsus normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish yoki mavjud “Tezkor-qidiruv faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonunni chuqur takomillashtirish zarur. Bu hujjatda tezkor-qidiruv tadbirlarini BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi talablariga qisman moslashtirish, maxsus tergov usullaridan olingan dalillarning sud jarayonida himoya mexanizmlarini mustahkamlash lozim. Susan Rose-Ackerman va Bonnie J. Palifka ning “Korrupsiya va hukumat: sabablari, oqibatlari va islohotlar” monografiyasida taʼkidlanganidek, dalillarni ishonchli himoya qilish tizimi tezkor xodimlarning



huquqiy xavfsizligini oshiradi va tergov sifatini yuksaltiradi.<sup>28</sup>

Ikkinchidan, kadrlar siyosatini tubdan yangilash — tanlov jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, psixologik testlar, poligrafiya tekshiruvlari va axloqiy baholashni majburiy qilish kerak. Robert Klitgaardning “Korrupsiyani nazorat qilish” asarida ta’kidlanishicha, korrupsiya xavfini kamaytirishda mansabdor shaxslarning shaxsiy fazilatlar va ichki motivatsiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun tanlovda nafaqat professional bilim, balki vijdoniy mas’uliyat va stressga chidamlilik ham chuqur baholanishi lozim.

Uchinchidan, idoralararo ma’lumotlar bazalarini yagona platformaga birlashtirish va real vaqt rejimida monitoring tizimini joriy etish. Sun’iy intellekt asosidagi risk tahlili algoritmlari korrupsiyaviy sxemalarni erta bosqichda aniqlashga imkon beradi. OECDning “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi islohotlar” hisobotida bu yo‘nalish ustuvor vazifa sifatida tavsiya etilgan.

To‘rtinchidan, Singapur CPIB va Gongkong ICAC tajribalaridan foydalanib, IIO tezkor bo‘linmalarida ichki axloq kodekslarini qat’iy qo‘llash, ISO 37001 xalqaro standartiga asoslangan komplayens tizimini to‘liq joriy etish va xodimlarni moddiy-nomoddiy

rag‘batlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish zarur. Yuqori ish haqi, kasbiy o‘shish dasturlari, ijtimoiy kafolatlar va hurmat muhiti xodimlarda halollik madaniyatini shakllantiradi.

Beshinchidan, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida tezkor bo‘linmalar faoliyati haqida ochiq hisobot berish tizimini yo‘lga qo‘yish va fuqarolar murojaatlarini tezkor ko‘rib chiqish mexanizmlarini takomillashtirish. Transparency International tashkilotining tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, jamoatchilik ishtiroki korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim “tashqi” nazorat vositasi hisoblanadi.

Oltinchidan, xodimlar uchun doimiy kasbiy rivojlantirish dasturlarini joriy etish — xalqaro treninglar, simulyatsiya mashg‘ulotlari va axloqiy dilemmalarni hal qilish bo‘yicha seminarlar tashkil etish. Mahalliy olimlar S. Raxmonov va I. Iskandarovanning ilmiy ishlarida ham inson omilini rivojlantirish korrupsiyaga qarshi kurashning strategik yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Ushbu choralar kompleks va bosqichma-bosqich amalga oshirilganda IIO tezkor bo‘linmalarining institutsional quvvati sezilarli darajada oshadi, O‘zbekiston qonunchiligi xalqaro eng yaxshi amaliyotlar darajasiga yaqinlashadi. Natijada nafaqat korrupsion jinoyatlarni aniqlash va fosh etish samaradorligi ortadi, balki ularning oldini olish tizimi ham mustahkamlanadi.

Eng muhimi, barcha islohotlar markazida inson omili turishi kerak. Chunki har qanday qonun, texnologiya va

<sup>28</sup> Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform - Susan Rose-Ackerman, Bonnie J. Palifka - [https://books.google.co.uz/books/about/Corruption\\_and\\_Government.html?hl=id&id=x6uzCwAAQBAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Corruption_and_Government.html?hl=id&id=x6uzCwAAQBAJ&redir_esc=y)



mexanizm oxir-oqibat uni amalga oshiruvchi xodimlarning vijdoni, kasbiy g'ururi, motivatsiyasi va ichki mas'uliyat tuyg'usiga bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni mamlakatda korrupsiyaga qarshi huquqiy kurashning asosiy normativ-huquqiy hujjati sifatida muhim o'rin tutadi. Ushbu Qonun BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi talablariga asoslanib ishlab chiqilgan bo'lsa-da, xalqaro huquqiy standartlar, OECD tavsiyalari va dunyoning muvaffaqiyatli tajribalari bilan chuqur solishtirilganda bir qator tizimli kamchiliklarga ega ekanligi ko'zga ko'rinishi mumkin.

Xalqaro standartlar bilan solishtirganda eng jiddiy kamchiliklardan biri Agentlikning institutsional mustaqilligining yetarli emasligidir. UNCACning 6-moddasida korrupsiyaga qarshi profilaktika organi siyosiy ta'sirdan to'liq xoli bo'lishi, mustaqil byudjetga ega bo'lishi va rahbarini tanlash jarayoni shaffof bo'lishi talab etiladi. O'zbekiston Qonunida esa Agentlik Prezident apparati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning funksional va moliyaviy mustaqilligi aniq huquqiy kafolatlanmagan. O'zbekiston tajribasida mustaqillik darajasi yetishmaydi, bu esa yuqori darajadagi korrupsiya holatlarida siyosiy aralashuv xavfini oshiradi.

Yana bir muhim kamchilik — profilaktika va repressiv mexanizmlar o'rtasidagi muvozanatning zaifligidir.

Qonun ko'proq deklarativ xarakterga ega bo'lib, UNCACning II bobida (profilaktika choralari) nazarda tutilgan ko'plab muhim yo'nalishlar yetarli chuqurlashtirilmagan. Masalan, davlat xizmatchilarining mol-mulk deklaratsiyasi tizimi zaif, yuqori mansabdor shaxslar uchun deklaratsiyalarni ochiq e'lon qilish va avtomatik tekshirish mexanizmlari yetarli emas. Xususiyl sektor da pora berish, savdo ta'siri va noqonuniy boylikni jinoyatlashtirish masalalari ham umumiy tarzda qoldirilgan, holbuki OECD va UNCAC bu yo'nalishlarni majburiy talab qiladi.<sup>29</sup>

Hisobdorlik mexanizmlari ham zaif. Jamoatchilik nazorati deklarativ darajada qolgan, mustaqil monitoring, ochiq eshituvlar va fuqarolik jamiyati institutlarining real ta'sir vositalari yetarli emas.

Takomillashtirish yo'llari sifatida birinchi navbatda Qonunni yangi tahrirda qabul qilish yoki tubdan o'zgartirish zarur. Yangi hujjatda UNCACning barcha talablarini yana takomillashtirish, xususiyl sektordagi korrupsiya va noqonuniy boylikka alohida bo'limlar ajratish lozim. Agentlikning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash uchun uning rahbarini tanlash tartibini Oliy Majlis ishtirokida belgilash, byudjet mustaqilligini kafolatlash va siyosiy

<sup>29</sup> United Nations. (2003). United Nations Convention Against Corruption. New York: United Nations Office on Drugs and Crime. Retrieved from [https://www.unodc.org/documents/treaties/UNCAC/Publications/Convention/08-50026\\_E.pdf](https://www.unodc.org/documents/treaties/UNCAC/Publications/Convention/08-50026_E.pdf)



aralashuvdan huquqiy himoyani kuchaytirish kerak. Ichki ishlar organlari tezkor bo‘linmalari uchun maxsus komplayens tizimini majburiy joriy etish, kadrlar tanlovida psixologik va poligraf testlarini qo‘llash, yuqori ish haqi va rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish samarali yo‘nalish bo‘ladi. Shuningdek, operativ tadbirlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, dalillarni sudda himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish va jamoatchilik nazoratini real mexanizmlar bilan ta‘minlash muhim ahamiyatga ega.

Ushbu takomillashtirishlar nafaqat qonunchilikni xalqaro eng yaxshi

amaliyotlar darajasiga yetkazadi, balki IIO tezkor bo‘linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi institutsional samaradorligini ham sezilarli oshiradi. Eng muhimi, barcha islohotlar markazida inson omili turishi kerak — xodimlarning kasbiy mahorati, axloqiy qat‘iyati va ichki motivatsiyasini kuchaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurash chinakam samarali bo‘ladi. Faqat shu yo‘l bilan milliy huquqiy tizim nafaqat deklarativ, balki amaliy jihatdan samarali mexanizmga aylanishi mumkin.